TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.13/05.05.2023.T.07.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

NASIMOVA NIGORAXON MIZROBOVNA

STATISTIK MA’LUMOTLAR ASOSIDA SINTETIK O‘QUV TANLANMANI HOSIL QILISHNING MODEL VA ALGORITMLARI

05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI AVTOREFARATI

Toshkent – 2025

UDK: 004.93

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Contents of the Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences Dissertation Abstract

Nasimova Nigoraxon Mizrobovna
Statistik ma’lumotlar asosida sintetik o‘quv tanlanmani hosil qilishning model va algoritmlari 3

Насимова Нигорахон Мизробовна
Модели и алгоритмы для генерации синтетических обучающих выборок на основе статистических данных 18

Nasimova Nigoraxon Mizrobovna
Models and algorithms of generating the synthetic dataset based on statistical data 39

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 40

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.13/05.05.2023.T.07.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

NASIMOVA NIGORAXON MIZROBOVNA

STATISTIK MA’LUMOTLAR ASOSIDA SINTETIK O‘QUV TANLANMANI HOSIL QILISHNING MODEL VA ALGORITMLARI

05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI AVTOREFARATI

Toshkent – 2025

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T5320 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tuit.uz) va “ZiyoNet” axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Mo‘minov Bahodir Boltaevich** texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Muxamediyeva Dildora Kabilovna** texnika fanlari doktori, dotsent
	Atadjanov Ibragim Ravshanbekovich texnika fanlari doktori
Yetakchi tashkilot:	**“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/05.05.2023.T.07.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “25”-iyun soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur shox ko‘chasi 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-43, e-mail: ilmiy_kengash@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (357 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur shox ko‘chasi 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “12” iyun da tarqatildi.
(2025-yil “12” iyun dagi 9 raqamli reestr bayonnomasi.)

M.M.Kamilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor, O‘zR FA akademigi

N.A.Egamberdiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

N.O. Raximov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sun’iy intellekt algoritmlarini tibbiyotda, jumladan surunkali kasalliklarga chalinish xavfini baholash, kasallikning yashirin belgilarini aniqlash, rivojlanish tendensiyasini baholashda qo’llash yetakchi o’rinlardan birini egallamoqda. Ammo chuqur o‘qitish algoritmlarini o’qitish uchun katta hajmdagi o‘quv tanlanma talab etiladi. Dunyo miqyosida zaruriy o‘quv tanlanmaning yetishmovchiligi yoki ulardan foydalanish uchun Sog‘liqni saqlash sug‘urtasi portativligi va javobgarligi to‘g‘risidagi qonuni va Umumiy ma’lumotlarni himoya qilish reglamenti kabi qonuniy cheklovlarning mavjudligi haqiqiy o‘quv tanlanmalarning o’rniga sintetik o‘quv tanlanmalardan foydalanishni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi[1]. Shu jihatdan ishonchli va sifatli sintetik tibbiy o‘quv tanlanmasini hosil qilish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda sintetik tibbiy o‘quv tanlanmalarni hosil qilish, ularning sifatini va ishonchliligini oshiruvchi yangi ilmiy-amaliy yechimlarini ishlab chiqishga yo’naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, sintetik ma’lumotlarni hosil qilish imkonini beruvchi Synthea, MDClone Adam, Gretel, Synthetic Data Vault kabi dastur va kutubxonalarni ishlab chiqishga alohida e’tibor berilmoqda. Gartner Amerika texnologik tadqiqotlar markazi sintetik ma’lumotlarni ishlab chiqarish bozori hajmi 2024 va 2029-yillarda 61,1% ga ya’ni 4,39 milliard dollarga o‘sadi deb bashorat qilgan[2]. Shuning uchun bugungi kunda jahon miqyosida statistik ma’lumotlar asosida sifatli va ishonchli sintetik o‘quv tanlanmalarni hosil qilish dolzarb ilmiy tadqiqot masalalaridan biri bo’lib qolmoqda.

Respublikamizda tibbiyot yo‘nalishida tibbiy ma’lumotlar bazasini to‘plash va samaradorlikni oshirish uchun ularni sintetik hosil qilish imkonini beruvchi dasturiy vositalarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida sun’iy intelektni yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasida, jumladan, “… katta hajmdagi ma’lumotlar to‘plamini tahlil qilish va bilimlarni to‘plash bo‘yicha, shu jumladan katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va intellektual tahlil qilishning yangi usullari va algoritmlarini, katta hajmdagi ma’lumotlarni tarqatish uchun yangi usullar va dasturlar, shu bilan birga murakkab muhandislik yechimlarini bashoratli modellashtirish uchun yangi usullar va dasturiy ta’minotlar bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish” bo’yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, statistik ma’lumotlar asosida keng tarqalgan kasalliklarga chalingan bemorlar haqida yetarlicha ma’lumotlarni o’zida mujassamlashtirgan sifatli va ishonchli sintetik jadvalli o’quv tanlanmalarni hosil qilish imkonini beruvchi sun’iy intellekt model va algoritmlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli ““Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida[3], 2023–yil 11– sentabrdagi

[1] Fonseca, J., Bacao, F. Tabular and latent space synthetic data generation: a literature review. J Big Data 10, 115 (2023).

[2] https://www.technavio.com/report/synthetic-data-generation-market-analysis

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli, ““Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.

PF–158–sonli “O‘zbekiston–2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida[4], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-sonli qarorlari[5] hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining IV. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. So‘nggi yillarda jahonda sintetik jadvalli ma’lumotlarni sun’iy intellekt model va algoritmlari asosida hosil qilish va amaliyotda joriy etishga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, L.Xu, M.Skularidu, A.Kuesta-Infant, Y.Choy, S. Bisval, B.Malin, J.Duk, A.Mottini, N.Park, M.Mohammadi, K.Gord kabi tadqiqotchilarning ishlarida Generativ teskari tarmoqlari (Generative Adversarial Networks, GANs) yordamida sintetik jadvalli ma’lumotlarni hosil qilishning turli usullari taklif etilgan. Variatsion avtoankoder (Variational autoencoder, VAE) tarmoqlari yordamida sintetik jadvalli ma’lumotlarni hosil qilish usullari N.Park, M.Mohammadi, K.Gord tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan, mashinali o‘qitish usullari, xususan Bayes tarmog‘i yordamida sintetik jadvalli ma’lumotlarni hosil qilish usullari G.Zang, K.Kormod, D.Prokopiuk kabi olimlar tominidan ishlab chiqilgan.

Respublikamizda ma’lumotlarga intellektual ishlov berish sohasining tanib olish model va algoritmlari yo‘nalishida M.Kamilov, xususiyatlarni aniqlash va tanlash algoritmlari yo‘nalishida Sh.Fozilov, ekspert tizimlari yo‘nalishida M.Raxmatullayev, tasniflash va tashxislash masalalari bo‘yicha A.Nishanov, sintetik ma’lumotlarni hosil qilishning model va algoritmlari yo‘nalishida B.Mo‘minov, F.Maxmudxo‘jayev, Sh.Madraximov kabi olimlar ilmiy tadqiqot olib borib, ushbu yo‘nalishning rivoji uchun o‘z hissalarini qo‘shib kelishmoqda.

Shu bilan birga, statistik ma’lumotlarga asoslangan sintetik tibbiy jadvalli ma’lumotlar bazasini hosil qilish yo‘nalishida tadqiqotlarni davom ettirish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining И3-2020082913 “Surunkali kasalliklarni masofadan monitoring qilish uchun smartfon dasturiy ilovasini ishlab chiqish” (2022-2023) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi surunkali kasalliklarni sun’iy intellekt bilan bashoratlashda ishlatiladigan sintetik o‘quv tanlanmalarni statistik ma’lumotlar asosida hosil qilish model va algoritmlarini ishlab chiqishdan iborat.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-sonli, “O‘zbekiston–2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.10.2024-yildagi PQ-358-sonli “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori.

Tadqiqotning vazifalari:

sintetik jadvalli o‘quv tanlanmalarni hosil qilishning sun’iy intellekt model va algoritmlarini tadqiq etish;

GAN tarmog‘ini o‘qitishda ishlatiladigan yo‘qotish funksiyalarini tahlil qilish asosida jadvallar yaqinligini baholovchi yangi yo‘qotish funksiyasining matematik modelini ishlab chiqish;

qisman ikkilik inversiya usuli asosida “0” va “1” dan iborat bo‘lgan jadvallarning qiymatlarini ustunlar bo‘yicha aralashtirish algoritmini ishlab chiqish;

mustahkamlab o‘qitish asosida sintetik jadvalli ma’lumotlarni hosil qilish algoritmini ishlab chiqish;

GAN tarmog‘ining kirish va chiqish qatlamlarini modifikatsiyalash va yangi yo‘qotish funksiyasini ishlab chiqish asosida sintetik o‘quv tanlanmalarni hosil qilishning model va algoritmi ishlab chiqish.

taklif etilayotgan model va algoritmlar asosida ishlab chiqilgan sintetik jadvallarni o‘xshashlilik va foydalilik mezonlari bo‘yicha baholash;

Tadqiqotning obyekti sifatida surunkali kasalliklarning statistik ma’lumotlari, GAN tarmog‘i, yo‘qotish funksiyasi, mustahkamlab o‘qitishning model va algoritmini ishlab chiqish jarayonlari qaralgan.

Tadqiqotning predmeti sifatida sintetik o‘quv tanlanmalarni hosil qilish model, usul va algoritmlari olindi.

Tadqiqotning usullari sifatida chuqur o‘qitishning algoritmlari, matematik va statistik tahlil usullari, neyron tarmoqlarini modellashtirish usullari olingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sintetik jadvalli ma’lumotlarning statistik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning haqiqiy ma’lumotlarga yaqinligini baholovchi va GAN tarmog‘ini o‘qitish uchun yangi yo‘qotish funksiyasining matematik modeli ishlab chiqilgan;

qisman ikkilik inversiya usuli asosida “0” va “1” dan iborat bo‘lgan jadvallarning ustunlaridagi qiymatlarni aralashtirish algoritmi ishlab chiqilgan;

mustahkamlab o‘qitish asosida o‘zgaruvchilarni aralashtirib sintetik jadvalli o‘quv tanlanmani hosil qilish algoritmi ishlab chiqilgan;

GAN tarmog‘ining kirish va chiqish qatlamlarini modifikatsiyalash hamda yangi ishlab chiqilgan yo‘qotish funksiyasini qo‘llash asosida sintetik o‘quv tanlanmalarni hosil qilishning model va algoritmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan model va algoritmlar kesimida ma’lum fan soha mutaxassisi, dasturchi bo‘lmagan foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan dastur ishlab chiqilgan;

“Tibbiy sintetik ma’lumotlarni hosil qilish algoritmi” hamda “Tibbiy statistik ma’lumotlar asosida sintetik jadvalli ma’lumotlarni hosil qilishning GAN algoritmi” nomli algoritmlar ishlab chiqilgan;

“Surunkali kasalliklarni masofadan monitoring qilishning shifokor ilovasi” hamda “Surunkali kasalliklarni masofadan monitoring qilishning bemor ilovasi” nomli dasturiy ilovalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tavsiya etilgan baholash metodlari (Student t-testi, Vassershteyn masofasi, χ^2 (Chi-kvadrat) testi, TSTR (Train on Synthetic, Test on Real) va TRTR (Train on Real, Test on Real) testlari) natijalari bilan tasdiqlangan. Qo‘yilgan muammoning matematik jihatdan to‘g‘ri ifodalanishi, xususiyatlar orasidagi bog‘liqliklarni aniqlashda ma’lumotlarni intellektual tahlil qilish usullari to‘g‘ri qo‘llanilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan neyron tarmog‘i arxitekturasi, sintetik o‘quv tanlanmalarini hosil qilish algoritmi ko‘plab boshqa surunkali kasalliklarni tashxislash va bashoratlash bilan bog‘liq masalalarini hal etishda foydalanish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati hosil qilingan o‘quv tanlanma asosida surunkali kasalliklarni monitoring qiluvchi mobil ilova orqali bemorlarni o‘z-o‘zini monitoring qilish va mas’ul shifokorlar masofadan monitoring qilishi imkonini hosil qilish orqali surunkali kasalliklarning og‘ir asoratlarini oldini olish, shuningdek 2-tur qandli diabet xavfini oldindan aniqlash imkonini hosil qilish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yaratilgan tadqiqot usullari va algoritmlari bo’yicha olingan natijalar asosida:

“Tibbiy statistik ma’lumotlar asosida sintetik jadvalli ma’lumotlarni hosil qilishning GAN algoritmi” asosida hosil qilingan sintetik o’quv tanlanmadan foydalangan holda yaratilgan 8 ta simptom asosida 2-tur diabetga tashxis qo‘yish imkoniyatini beruvchi dasturiy vositasi Olot tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasida muvaffaqiyatli joriy etildi. Ushbu dastur qandli diabet kasalliklarini tashxislashda aniqlikni oshirishga xizmat qilib, uning amaliyotga tatbiq etilishi (O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 25-fevraldagi 33-8/1255-sonli ma’lumotnomasi) bo‘yicha samarali deb baholandi. Joriy qilingan dastur soha mutaxassislarining ish unumdorligini 5 % ga oshirgan;

“Tibbiy sintetik ma’lumotlarni hosil qilish algoritmi” asosida hosil qilingan sintetik o‘quv tanlanmalar yordamida yaratilgan yurak xurujini aniqlash imkoniyatini beruvchi dasturiy vosita Marg‘ilon tumanlararo Perinatal markazida muvaffaqiyatli joriy etildi. Ushbu dastur qandli diabet kasalliklarini tashxislashda aniqlikni oshirishga xizmat qilib, uning amaliyotga tatbiq etilishi (O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 25-fevraldagi 33-8/1255-sonli ma’lumotnomasi) bo‘yicha samarali deb baholandi. Joriy qilingan dastur soha mutaxassislarining ish unumdorligini 7% ga oshirgan;

“Tibbiy sintetik ma’lumotlarni hosil qilish algoritmi” hamda “Tibbiy statistik ma’lumotlar asosida sintetik jadvalli ma’lumotlarni hosil qilishning GAN algoritmi” dasturlari tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazida joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 25-fevraldagi 33-8/1255-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu ishlab chiqilgan algoritm va dasturlar yordamida olingan natijalar axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt sohasida ta’lim berish jarayonida talabalarga o‘quv tanlanmalar bilan ishlash, ulardan algoritmlarni o‘qitishda foydalanish, mavjud xatoliklarni aniqlash, muayyan

masalani yechishda haqiqiy o‘quv tanlanma topilmaganda sintetik o‘quv tanlanmadan foydalanish foydalari va kamchiliklarini tushunishlarida muhim rol o‘ynab, ta’lim samaradorligini oshirish imkoniyatini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning ilmiy va amaliy natijalari 9 ta xalqaro va 5 respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha asosiy natijalari 28 ta ilmiy ishlarda e’lon qilingan, ulardan 7 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini e’lon qilish uchun tavsiya qilingan jurnallarda, jumladan 5 tasi xorijiy jurnallarda va 2 tasi respublika jurnallarida nashr qilingan, hamda 5 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarni qayd qilish guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida O‘zbekiston Respublikasining fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan hamda tadqiqot obyekti va predmeti ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiliklari hamda amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalaraning ishonchligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya ishining tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sintetik ma’lumotlarning ahamiyati va ularni hosil qilish algoritmlari tahlili” deb nomlangan birinchi bobida** sintetik ma’lumotlarning sun’iy intellektni tibbiyotda qo‘llash jarayonidagi o‘rni va ahamiyati, sintetik o‘quv tanlanmalarining qo‘llanilish sohalari, jadvalli sintetik o‘quv tanlanmalarini hosil qilishdagi muammolar va dolzarb masalalar o‘rganilgan. Ushbu sohada dunyo tadqiqotchilari tomonidan olib borilayotgan ilmiy va amaliy tadqiqot ishlari atroflicha o‘rganilib, sintetik jadvalli o‘quv tanlanmalarni hosil qilish usuli va algoritmlari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotlar natijalaridan hozirda ushbu sohada hal etilishi dolzarb bo‘lgan masalalar keltirilgan.Sintetik ma’lumot tushunchasiga Qirollik jamiyati va Alan Tyuring instituti tomonidan “Ma’lumotlar ilmi fani (Data science)ga oid vazifalarni hal qilish maqsadida maxsus tuzilgan, matematik model yoki algoritm yordamida hosil qilingan ma’lumotlardir” deb ta’rif beriladi. Sintetik ma’lumotlar qator imkoniyatlarni taqdim etadi.

Sintetik jadvalli ma’lumotlarlarni hosil qilish murakkab jarayon bo‘lib, bu undagi bir nechta muammolar bilan bog‘liqdir.

- Ma’lumotlarning aralash turli bo‘lishi.
- Ma’lumotlarning ishonchliligi.
- Domenga xoslik.

– Yechiladigan masalaga xoslik.
– Rejimning qulashi.
– Statistik o‘xshashlikning talab etilishi.
– Ma’lumotlar maxfiyligini ta’minlash murakkabligi.
– Kam sonli ma’lumotlar bilan ishlash muammosi.



1-rasm. Sintetik ma’lumotlarni hosil qilish usullari tasnifi

Ushbu muammolarga qaramasdan, sintetik jadvalli ma’lumotlarga bo‘lgan ehtiyoj sababli so‘nggi yillarda sintetik jadvalli ma’lumotlarni hosil qilish bo‘yicha qator tadqiqotlar olib borildi. Natijada, sintetik tibbiy ma’lumotlar bazasini hosil qilishning bir qancha model va algoritmlari ishlab chiqildi (1-rasm). Ammo ular orasida statistik ma’lumotlardan foydalanib sintetik o‘quv tanlanmalarni hosil qilish usullari juda kam va mavjudlari ham SI algoritmlari hisoblanmaydi, balki statistik usullar hisoblanadi. Ulardan foydalanishda hisoblash murakkabligi, foydalanuvchidan chuqur matematik va statistik bilimlarni talab etilishi kabi muammolarga duch kelish mumkin. Shu sababli statistik ma’lumotlar asosida SI algoritmlari, xususan chuqur o‘qitish algoritmlari yordamida jadvalli sintetik o‘quv tanlanmalarni hosil qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“GAN tarmog‘ini o‘qitishda yo‘qotish funksiyalari” deb nomlangan ikkinchi bobida** GAN tarmog‘ini o‘qitishda yo‘qotish funksiyasining roli, keng tarqalgan yo‘qotish funksiyalari turlari va ularning xususiyatlari,

shuningdek, turli yo‘qotish funksiyalarining GAN tarmog‘i hosil qilgan ma’lumotlar sifatiga ta’siri, ularning afzallik va kamchiliklari o‘rganilgan. Bundan tashqari, jadvalli ma’lumotlarning o‘xshashligini baholash uchun ishlatiladigan funksiyalar, ularning xususiyatlari qiyosiy tahlil qilingan. Ushbu funksiyalardan neyron tarmoqlarini o‘qitishda yo‘qotish funksiyasi sifatida foydalanish imkoniyatlari qiyosiy tahlillar asosida ko‘rib chiqilgan.

Har bir yo‘qotish funksiyasi o‘zining kuchli va zaif tomonlariga ega, shuning uchun GAN tarmog‘ini optimallashtirishda turli yo‘qotish funksiyalarining kombinatsiyasi yaxshiroq natijalarga olib kelar ekan.

Jadvallarning o‘xshashligini baholovchi yo‘qotish funksiyalari sintetik ma’lumotlarni hosil qilishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular haqiqiy va sintetik jadvallar orasidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi. Asosiy maqsad sintetik jadvallarni haqiqiy ma’lumotlarga maksimal darajada o‘xshash qilish. Lekin bugungi kunda ishlatiladigan yo‘qotish funksiyalari qator kamchiliklarga ega, jumladan, jadvallarni sifatli baholay olmaslik, hisoblashning murakkabligi, o‘qitish uchun ishlatish noqulay.

Dissertatsiya ishining **uchinchi bobi “Sintetik ma’lumotlarni hosil qilish algoritmlari”** deb nomlangan bo‘lib, unda yangi yo‘qotish funksiyasining matematik modeli, GAN tarmog‘i asosida sintetik ma’lumotlarni hosil qilishning yangi algoritmi, faqat 0 va 1 qiymatlardan iborat bo‘lgan jadvalli ma’lumotlarni hosil qilishga mo‘ljallangan mustahkamlab o‘qitish algoritmi ishlab chiqilgan.

Jadvallarning o‘xshashligini baholash uchun yangi yo‘qotish funksiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, uni matematik modeli quyidagicha:

1-qadam. Har bir satr uchun yig‘indini hisoblash: Haqiqiy jadval *R* matritsa, sintetik jadval *S* matritsa sifatida berilgan bo‘lsin. Bunda, x_{nm}- *R* ning *n*-qator va m-ustunidagi element, y_{nm} esa S matritsaning i-qatori va j-ustunidagi elementdir. Bizning holatda matritsalar 766 qator va 9 ustundan iborat. n-qatordagi *R* matritsa elementlarining va i-qatordagi S matritsa elementlarining yig‘indisi hisoblanadi:

$$r_n = \sum_m^9 x_{nm} \qquad (n=1,2,\ldots,9) \qquad (1)$$

$$s_i = \sum_j^9 y_{ij} \qquad (i=1,2,\ldots,9) \qquad (2)$$

Yuqoridagi yig‘indini har bir *n* va *i* qator uchun bajariladi.

2-qadam. Har bir ustun uchun yig‘indini hisoblash: *R* matritsaning *m*-ustunidagi elementlarining va *S* matritsaning *j*-ustunidagi elementlarining yig‘indisi hisoblanadi:

$$R_m = \sum_n^{766} x_{nm} \qquad (m=1,2,\ldots,766) \qquad (3)$$

$$S_j = \sum_i^{766} y_{ij} \qquad (j=1,2,\ldots,766) \qquad (4)$$

*3-qadam.*Vertikal ayirmalarning o‘rtacha qiymatini aniqlash: Har bir ma’lumotlarning ustunlari yig‘indisi elementlar bo‘yicha ayirilib, ayirmalarning o‘rtacha qiymati hisoblanadi: C={$\left| R_m - S_j \right|$}.

$$\mu = \frac{1}{9}\sum_{k=1}^{9} C_k \qquad (5)$$

4-qadam.Har bir qator uchun ayirmalarning minimal qiymati hisoblanadi:

$$\delta_n = \min_i(|r_n - s_i|) \quad (6)$$

Natijada δ_n minimal qiymatlardan iborat M to‘plam hosil bo‘ladi: $M = \{\delta_1, \delta_2, \dots, \delta_n\}$, bunda, *n= 1, 2, …766*.

5-qadam. Qayta takrorlanadigan minimal qiymatning foizini topish: Bunda, *N* teng qiymatga ega bo‘lgan 766 ta minimumga ega hamda takrorlangan minimal qiymat foizi aniqlanadi: P = N/766

6-qadam. Minimal qiymatlarning o‘rtacha qiymatini aniqlash:

$$\nu = \frac{1}{766}\sum_{n=1}^{766}\delta_n \quad (7)$$

7-qadam. Gorizontal yo‘qotishlarni hisoblash:

$$D = \frac{\nu}{P} \quad (8)$$

8-qadam. Bitta namuna uchun umumiy yo‘qotish quyidagicha aniqlanadi:

$$L_{bn} = D + \mu \quad (9)$$

Tarmoqni o‘qitish davomida har bir batch uchun L_{1bn}, L_{2bn} ,…, L_{kbn} yo‘qotish qiymatlariga ega bo‘lamiz, Bunda *k* - to‘plamdagi misollar soni.

9-qadam. Umumiy yo‘qotish funksiyasi barcha batchlardan olingan yo‘qotish qiymatlarining kvadrat ildizi orqali hisoblaniladi:

$$L_{TD} = \sqrt{\frac{1}{k}\sum_{l=1}^{k} L_l} \quad (10)$$

Mustahkamlab o‘qitish algoritmi 2-rasmda tasvirlangan. Ushbu algoritm quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

1-qadam. Algoritmga statistik ma’lumotlarni kiritish.

2-qadam. Ushbu statistik ma’lumotlar va ularga mos formulalar asosida birlamchi ma’lumotlar bazasi ishlab chiqish.

3-qadam. Fisher-Yats algoritmi yordamida ma’lumotlarni ustunlar bo‘yicha aralashtirish.

4-qadam. Taklif etilgan yangi aralashtirish algoritmi yordamida ma’lumotlarni ustunlar bo‘yicha aralashtirish.

5-qadam. P va B koeffitsiyentlarning boshlang’ich qiymatlarini va ularni o‘zgarishini aniqlashda ishlatiladigan β_1, β_2, ε koeffitsiyentlarning qiymatlarini kiritish.

6-qadam. Fisher-Yats algoritmi va *P, B* koeffitsiyentlardan foydalangn holda ma’lumotlarni belgilangan oralig’ini ustunlar bo‘yicha aralashtirish.

7-qadam. Aralashtirilgan o‘quv tanlanmani neyron tarmog‘iga uzatish va unda 5 davr davomida o‘qitish.

8-qadam. Sintetik o‘quv tanlanmada o‘qitilgan neyron tarmog‘ini haqiqiy o‘quv tanlanmada o‘qitib sinab ko‘rish.

9-qadam. Aniqlik yetarli bo‘lsa, o‘quv tanlanmani saqlab qo‘yish.



2-rasm. Berilgan statistik ma’lumotlar asosida sintetik ma’lumotlar bazasi hosil qilish algoritm

An’anaviy GAN tarmog‘i ikki qismdan iborat bo‘ladi: generator va diskriminator. Ushbu ikkita neyron tarmog‘i o‘zaro raqobatlashib birgalikda o‘qitiladi. Generator tarmog‘i - tasodifiy shovqinni kiruvchi ma’lumot sifatida qabul qiladi va uni sintetik ma’lumotlar namunalariga aylantiradi. Generatorning muvaffaqiyatli ishlashi uning diskriminatorni aldashi mumkin bo‘lgan yuqori sifatli va bir-birini takrorlamaydigan namunalarni hosil qilish qobiliyati bilan baholanadi. Generator yuqori generatsiya qobiliyatiga yo‘qotish funksiyasini minimallashtirish orqali erishadi. Diskriminator tarmog‘ining vazifasi esa generator ishlab chiqqan namunalarni haqiqiylik ehtimolligini baholashdan iboratdir. Tarmoqni o‘qitish davomida diskriminator ma’lumotlar to‘plamidagi haqiqiy ma’lumotlar va generator tomonidan hosil qilingan sun’iy namunalarni farqlashni o‘rganadi.

An’anaviy GAN modelini qo‘yilgan maqsadga moslashtirish uchun unga quyidagi uchta o‘zgartirishlar kiritildi: birinchidan, generator kirishini bitta emas, ikkita qilindi va kirishga tasodifiy shovqin emas, statistik ma’lumotlar kiritildi, ikkinchidan, generator tarmog‘ini o‘qitish uchun yangi yo‘qotish funksiyasidan foydalanildi, uchinchidan, diskriminator chiqishidan bir necha qatlam oldin statistik ma’lumotlar kiritildi. Ushbu modifikatsiyalangan GAN tarmog‘ining generator qismi ConvTranspose, BatchNormalization, Dropout, ReLu, Flatten va Output qatlamlaridan, Diskriminator qismi esa Convolution, BatchNormalization, Dropout, ReLu, Flatten va Output qatlamlaridan tashkil topgan.

GAN tarmog‘i yordamida sintetik ma’lumotlarni hosil qilish uchun an’anaviy GAN tarmog‘ining modifikatsiyalangan modeli ishlab chiqildi (3-rasm).



3-rasm. Taklif etilgan GAN tarmog‘i arxitekturasi

Generator va diskriminatorning o‘zaro raqobati natijasida, umumiy GAN tarmog‘i haqiqiy malumotlarga juda oxshash sintetik ma’lumotlarni hosil qilishni boshlaydi.

Tegishli yo‘qotish funksiyasi mos ravishda diskriminator uchun quyidagi:

$$\nabla_{\theta_d} \frac{1}{m} \sum_{i=1}^{m} \left[lgD\left(x^{(i)}\right) + \lg(1 - D(G(z^{(i)}))) \right] \qquad (11)$$

Generator uchun esa quyidagi:

$$\nabla_{\theta_g} \frac{1}{m} \sum_{i=1}^{m} lg(1 - D(G(z^{(i)}))) + L_{TS} \qquad (12)$$

ifoda orqali aniqlanadi. Bunda, L_{TS} – qo‘shimcha yo‘qotish funksiyasi.

GAN tarmog‘i statistik ma’lumotlarga asosan jadval hosil qilishni o‘rganadi, shuning uchun bu tarmoqni o‘qitishda zarur bo‘lgan ma’lumotlar bazasi ikkitadan iborat bo‘ladi: jadvalli ma’lumotlar bazasi va ushbu jadvallarning tegishli statistik xususiyatlari aks etgan statistik ma’lumotlar bazasi. Bu jarayonning bajarilish ketma-ketligi 4-rasmda tasvirlangan.

1-qadam. Statistik ma’lumotlar bazasini hosil qilish.

2-qadam. Statistik ma’lumotlar bazasining har bir ma’lumoti uchun birlamchi jadvalli ma’lumotlarni hosil qilish. Ushbu jadvalli ma’lumotlarni birlashtirgan holda jadvalli ma’lumotlar bazasini hosil qilish.

3-qadam. GAN tarmog‘ini hosil qilingan ikkita (jadvalli va statistik) ma’lumotlar bazasi bilan o‘qitish. O‘qitish davomida hosil qilingan sintetik o‘quv

tanlamaning o‘zgaruvchilari orasidagi bog‘liqlik haqiqiy o‘quv tanlanmaning o‘zgaruvchilari orasidagi bog‘liqlik bilan solishtirib boriladi.

4-qadam. O‘qitilgan GAN tarmog’i haqiqiy statistik ma’lumotlar asosida hosil qilgan sintetik o‘quv tanlanmalar foydalilik, o‘xshashlik mezonlari bo‘yicha baholanadi.

5-qadam. Baholash natijasi qoniqarli deb hisoblangan GAN tarmog‘i arxitekturasining giperparametrlari saqlab qo‘yiladi.



4-rasm. GAN tarmog‘i yordamida sintetik o‘quv tanlanmani hosil qilish algoritmi

Dissertatsiyaning **“Sun’iy intellekt algoritmlari yordamida hosil qilingan sintetik o‘quv tanlanmalarni baholash”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida sintetik jadvalli ma’lumotlarning sifatini baholash mezonlari va ularning tasnifi, ta’riflari keltirilgan. Yangi model va algoritmlar yordamida hosil qilingan sintetik jadvalli o‘quv tanlanmalarning haqiqiy jadvalli o‘quv tanlanmalarga o‘xshashligi va sun’iy intellekt algoritmlarini o‘qitish uchun foydaliligi tanlangan mezonlar asosida baholangan. Sintetik ma’lumotlar hosil qilingandan so‘ng, uning sifatini baholash eng muhim vazifa hisoblanadi. Ushbu tadqiqot ishida sintetik jadvalli o‘quv tanlanma (SJO‘T) ni kompleks baholash uchun quyidagi usullar ajratib olindi:

1. SJO‘T ning o‘xshashligini baholash uchun tanlangan usullar: Student T-test, Chi-square ($\chi 2$) test, Vasseshteyn masofasi.

2. SJO‘T ning foydaliligini baholash uchun tanlangan usullar: TRTR va TSTR testlardan olingan aniqlik, F1-qiymat, o‘ziga xoslik, sezgirlik qiymatlari va ular orasidagi farqlar.

O‘xshashlikni baholash uchun Vasseshteyn masofasidan foydalanildi. Bunda o‘quv tanlanmaning har bir atributi uchun Vassershteyn masofasi alohida-alohida hisoblandi. 1-jadvalda olingan natijalar keltirilgan. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, taklif qilingan usul yordamida hosil qilingan o‘quv tanlanmalardagi barcha atributlar uchun Vassershteyn masofasi kritik qiymat (0,3) dan kam bo‘lgan, bu esa ushbu attributlar o‘xshashlik shartini bajarishini ko‘rsatadi.

1-jadval.

Vassershteyn masofasi qiymati.

Atributlar nomi	*Taklif etilgan usul*	*GM*	*CTGAN*
Homiladorlik soni	0.077049	0.050503	0.090343
Glukoza miqdori	0.139552	0.029401	0.211049
Qon bosimi	0.119209	0.077486	0.135793
Teri qalinligi	0.166620	0.082580	0.063013
Insulin	0.047145	0.381628	0.161786
MVN	0.155688	0.026149	0.111652
Diabet Pedigre Funksiyasi	0.176867	0.051625	0.057591
Yoshi	0.086909	0.022935	0.031314

2-jadval.

TSTR testi natijalari

	Baholash mezonlari			
Usul nomi	*Aniqlik (%)*	*Sezgirlik (%)*	*O‘ziga xoslik (%)*	*F1-qiymat (%)*
Haqiqiy o‘quv tanlanma	0.7532	0.7554	0.7532	0.7542
SDV	0.6494	**0.7648**	0.6494	0.6494
CTGAN	0.3312	0.388	0.3312	0.2812
Taklif etilgan usul	**0.7078**	0.6966	**0.7078**	**0.6926**

Foydalilikni baholash. Foydalilikni baholash uchun TSTR testidan foydalanildi. Bu testda SI modeli sifatida Random Forest (RF) modelidan foydalanildi. Har bir model uchun test natijalarining aniqlik, o‘ziga xoslik, sezgirlik va F1-qiymatlari hisoblandi. 2-jadvalda TSTR test natijalari haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

XULOSA

“Statistik ma’lumotlar asosida sintetik o‘quv tanlanmalarni hosil qilishning model va algoritmlari” mavzusidagi dissertatsiya bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar olindi:

1. Sintetik jadvalli o‘quv tanlanmalarni hosil qilishning dolzarb masalalari va muammolar, sintetik jadvalli tibbiy o‘quv tanlanmalarni hosil qilishning usullari qiyosiy tahlil qilindi. Sintetik o‘quv tanlanmalarni hosil qilish usullarini solishtirma tahlil qilish natijasida turli surunkali kasalliklarga chalinish xavfini oldindan bashoratlash uchun ishlatiladigan jadvalli sintetik o‘quv tanlanmalarga ehtiyoj yuqori ekanligi asoslandi.

2. Sintetik o‘quv tanlanmalar GAN tarmog‘i yordamida hosil qilish jarayonida ishlatiladigan yo‘qotish funksiyalari tasniflanib, ularning xususiyatlari solishtirma tahlil qilindi. Bunda jadvalli sintetik o‘quv tanlanmalarni hosil qilishning usullari juda murakkab ekanligi va aynan jadvallarning o‘xshashligini baholash uchun moslashmaganligi sababli jadvalli ma’lumotlarning yaqinligini baholash uchun maxsus yo‘qotish funksiyasini ishlab chiqish dolzarb ekanligi aniqlandi.

3. Yuqoridagi talabdan kelib chiqib, to‘la sintetik tibbiy ma’lumotlarni faqat statistik ma’lumotlardan va neyron tarmog‘idan foydalangan holda mustahkamlab o‘qitish usulida hosil qilish algoritmi ishlab chiqildi.

4. Sintetik jadvalli o‘quv tanlanmalarni GAN tarmog‘i yordamida hosil qilishda faqat bitta yo‘qotish funksiyasidan foydalanish yaxshi samara bermasligi aniqlandi. Bunda ushbu asosiy yo‘qotish funksiyasiga qo‘shimcha yo‘qotish funksiyasini qo‘shish tarmoq samaradorligini oshirishi aniqlandi.

5. Jadvalli sintetik tibbiy o‘quv tanlanmalarni hosil qilishda GAN tarmog‘idan foydalanishda ishlatish mumkin bo‘lgan yangi yo‘qotish funksiyasi ishlab chiqildi. Ushbu y o‘qotish funksiyasi GAN va VAE tarmoqlarini o‘qitishda hosil qilinuvchi jadvalning sifatini yaxshilash imkonini beradi.

6. Sintetik jadvalli ma’lumotlarni GAN tarmog‘i yordamida hosil qilish algoritmi ishlab chiqildi. Ushbu algoritm statistik ma’lumotlar asosida kerakli jadvalli o‘quv tanlanmalarni hosil qilish imkonini beradi.

7. Statistik o‘quv tanlanmalarga asosan 2-tur diabetga chalinish xavfini 5 yil oldindan bashoratlash sun’iy intellekt algoritmlarini o‘qitish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan o‘quv tanlanma ishlab chiqildi. Ushbu o‘quv tanlanma yordamida o‘qitilgan neyron tarmog’i 2-tur diabetga chalinish xavfini 5 yil oldindan bashoratlash samaradorligini 5% ga oshirgan.

8. Modifikatsiya qilingan GAN tarmog‘i yordamida hosil qilingan sintetik tanlanmalar ishonchliligi va haqiqiy ma’lumotlarga o‘xshashligi, sun’iy intetllekt modellarini o‘qitishda foydaliligi nuqtai nazaridan yaxshi sifatli ma’lumotlar ekanligi turli baholash mezonlari bo‘yicha aniqlandi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.13/05.05.2023.T.07.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

ТАШКЕНТСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

НАСИМОВА НИГОРАХОН МИЗРОБОВНА

МОДЕЛИ И АЛГОРИТМЫ ДЛЯ ГЕНЕРАЦИИ СИНТЕТИЧЕСКИХ ОБУЧАЮЩИХ ВЫБОРОК НА ОСНОВЕ СТАТИСТИЧЕСКИХ ДАННЫХ

05.01.11 – Цифровые технологии и искусственный интеллект

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерство высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2025.1.PhD/T5320.

Диссертация выполнена в Ташкентском университете информационных технологий.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, английский, русский (резюме)) размещен на веб странице (www.tuit.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Муминов Баходир Болтаевич** доктор технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Мухамедиева Дилдора Кабиловна** доктор технических наук, доцент
	Атаджанов Ибрагим Равшанбекович доктор технических наук
Ведущая организация:	**Национальный исследовательский университет «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства»**

Защита диссертации состоится «25» июня 2025 г. в 14⁰⁰ часов на заседании научного совета DSc.13/05.05.2023.T.07.03 при Ташкентском университете информационных технологий. (Адрес: 100084, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 108. Тел.: (99871) 238-64-43; e-mail: ilmiy_kengash@tuit.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского университета информационных технологий (регистрационный номер №357). (Адрес: 100084, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 108. Тел.: (99871) 238-64-70).

Автореферат диссертации разослан «12» июня 2025 года.
(протокол рассылки №9 от «12» июня 2025 г.).

М.М.Камилов
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, академик АН РУз

Н.А.Эгамбердиев
Ученый секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии по техническим наукам

Н.О.Рахимов
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. На сегодняшний день проводится множество научных исследований по оценке риска хронических заболеваний с помощью алгоритмов искусственного интеллекта, в том числе алгоритмов глубокого обучения, выявлению скрытых признаков заболевания, оценке тенденции развития. Однако для обучения алгоритмам углубленного обучения требуется большой объем обучающей выборки. Одной из основных проблем остается отсутствие необходимой учебной выборки или наличие законодательных ограничений на их использование, таких как Закон о портативности и ответственности медицинского страхования и Общий регламент защиты данных. В последние годы исследователи предложили использовать синтетическую учебную выборку вместо реальной учебной выборки в качестве решения этой проблемы[1]. Поскольку качественная синтетическая учебная выборка сохраняет статистические характеристики и внутренние связи в реальной учебной выборке, они используются при обучении алгоритмам углубленного обучения. Однако создание качественных и надежных синтетических данных - очень сложная задача. Поэтому создание надежной и качественной синтетической медицинской образовательной выборки остается одной из актуальных задач.

В мире ведутся интенсивные исследовательские работы по созданию синтетических медицинских образовательных выборок, повышению их качества и надежности. В частности, в настоящее время все больше разрабатывается программ и библиотек, таких как Synthea, MDClone Adam, Gretel, Synthetic Data Vault, которые позволяют генерировать синтетические данные. Американский центр технологических исследований Gartner прогнозирует, что объем рынка производства синтетических данных вырастет на 61,1% в 2024 и 2029 годах, то есть на 4,39 миллиарда долларов[2]. Однако практически все они требуют использования существующей реальной учебной выборки и считаются неудовлетворительными для использования в медицине с точки зрения надежности и качества. Поэтому на сегодняшний день в мировом масштабе формирование качественных и достоверных синтетических учебных выборок на основе статистических данных остается одной из актуальных научно-исследовательских задач.

В нашей республике особое внимание уделяется разработке программных средств, позволяющих собирать медицинские базы данных и синтезировать их для повышения эффективности. Данное диссертационное исследование в определенной степени слу жит реализации задач, предусмотренных Указом Республики Узбекистан от 5 октября 2020 года № PF -6079 «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан - 2030» и мерах по ее эффективной

[1]Fonseca, J., Bacao, F. Tabular and latent space synthetic data generation: a literature review. J Big Data 10, 115 (2023).

[2] https://www.technavio.com/report/synthetic-data-generation-market-analysis

реализации»[3], В Указе Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № PF -158 «О Стратегии «Узбекистан-2030» »[4] определены задачи, а именно «…развитию и стимулированию научно-исследовательских работ в области цифровых технологий, совершенствованию организационных механизмов их реализации…», а также по «…проведению научных исследований в области анализа и накопления знаний на основе больших объемов данных, в том числе по новым методам и алгоритмам сбора, хранения и интеллектуального анализа больших данных, новым способам и программам их распространения, а также по созданию новых методов и программного обеспечения для прогностического моделирования сложных инженерных решений»…», постановлением Президента Республики Узбекистан от 14 октября 2024 года №PQ-358 «Об утверждении Стратегии развития технологий искусственного интеллекта до 2030 года»[5], приоритетных задач «…внедрения технологий искусственного интеллекта: в сфере здравоохранения – определение методов диагностики, лечения заболеваний, анализ медицинских снимков и управление данными о больном...».

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики IV. «Информатизациия и развитие информационно-коммуникационных технологий».

Степень изученности проблемы. В последние годы в мире проводятся научные исследования, посвященные генерации и внедрению в практику синтетических табличных данных на основе моделей и алгоритмов искусственного интеллекта. В частности, в работах таких исследователей, как L.Xu, M.Skularidu, A.Kuesta-Infant, Y.Choy, S. Bisval, B.Malin, J.Duk, A.Mottini, N.Park, M.Mohammadi, K.Gord, предложены различные методы генерации синтетических табличных данных с использованием генеративных состязательных сетей (Generative Adversarial Networks, GANs). Методы генерации синтетических табличных данных с помощью вариационных автоэнкодеров (Variational Autoencoder, VAE) рассмотрены в исследованиях N.Park, M.Mohammadi, K.Gord, а методы генерации синтетических табличных данных на основе методов машинного обучения, в частности с использованием байесовских сетей, разработаны такими учеными, как G.Zang, K.Kormod, D.Prokopiuk.

В Республике в сфере моделей и алгоритмов распознавания в области интеллектуальной обработки данных научные исследования ведет М. Камилов, в области алгоритмов выявления и отбора признаков – Ш. Фозилов, по экспертным системам – М. Рахматуллаев, по вопросам классификации и диагностики – А. Нишанов, а в сфере моделей и алгоритмов генерации синтетических данных – такие ученые, как Б. Муминов, Ф. Махмудходжаев и

[3] Указ Президента Республики Узбекистан от 05.10.2020 г. No УП-6079 «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации».

[4] Указ Президента Республики Узбекистан от 11.09.2023 г. No УП-158 «О Стратегии «Узбекистан-2030»»

[5] Постановление Президента Узбекистан от 14 октября 2024 года №ПП-358 «Об утверждении Стратегии развития технологий искусственного интеллекта до 2030 года».ф

Ш. Мадрахимов, которые вносят свой вклад в развитие данного направления. Вместе с тем, продолжение исследований в области генерации базы синтетических медицинских табличных данных на основе статистических данных остается актуальной задачей.

